



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Кнарлик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание»	5
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари	10
Дилдора Собиржонова Джураева Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации	19
G'olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	24
Аскар Хайдарович Джумаев Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари	28
Анвар Нематович Холиқулов Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини	31
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане	35
Dilafroz Marufovna Vofaxojayeva Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rnini	39
Наргиза Музафаровна Бабаева Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли	45
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Agroklasterni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo'nalish va mexanizmlari	50
Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva O'zbekistonda go'sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi	53
Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov Sutni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	56
G'ayrat Ablakulovich Ibragimov, Diyora O'tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G'ayrat qizi Ablakulova Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o'rnini	60
Akhror Abdihakimovich Shermatov The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy	64
Barno Asatullojevna Mardanova Sut mahsulotlari ta'minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar	69
Eldor Toshtemirovich Xamdorov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov O'zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	74
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Munavvar Farxod qizi Axrorova Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari	77
Sanjar Nasriddinovich Nazarov Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	82

3. Айнакулов М. А., Абдухамидов Э. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 80-83.
4. Berkinov B. B., Aynaqulov M. A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi // Monografiya-Jizzax. – 2004. – Т. 114. – С. 2004-114.
5. Айнакулов М. А., Худойбердиев Б. Б. Формы и методы развития агрокластера, их основные направления // Технологии социальной работы в различных сферах жизнедеятельности. – 2020. – С. 70-75.
6. Aynaqulov M. A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – С. 91.
7. Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2432. – №. 1.
8. Айнакулов М. А., Худойбердиев Б. Б. Хозяйственные кластеры и их основные направления // Общество. – 2020. – №. 1. – С. 32-36.

<p>М.Айнакулов</p> <p>Методы, направления и механизмы взаимодействия на основе организационной оптимизации сельскохозяйственных кластеров</p> <p>Аннотация. В данной статье изучаются стратегии улучшения кооперативной деятельности в агрокластерах через организационную оптимизацию, акцентируя внимание на интеграции различных участников агропромышленного комплекса для повышения общей эффективности. Исследование опирается на мультидисциплинарный анализ и комбинирует разнообразные методы для оценки предложенных моделей оптимизации. Результаты подчеркивают положительные аспекты, такие как снижение затрат и улучшение качества, однако также указывают на потенциальные сложности, включая необходимость в инвестициях и возможное сопротивление со стороны персонала.</p> <p>Ключевые слова: агрокластеры, организационная оптимизация, кооперативная коммуникация, эффективность хозяйственной деятельности, мультидисциплинарный подход, снижение издержек, управление качеством, производственная кооперация.</p>	<p>М.Аynakulov</p> <p>Methods, directions and mechanisms of cooperation based on organizational optimization of agricultural clusters</p> <p>Abstract. This article examines strategies for improving cooperative activities in agricultural clusters through organizational optimization, focusing on the integration of various participants in the agro-industrial complex to improve overall efficiency. The study relies on multidisciplinary analysis and combines a variety of methods to evaluate the proposed optimization models. The results highlight positive aspects, such as cost reduction and quality improvements, but also highlight potential challenges, including the need for investment and possible resistance from staff.</p> <p>Keywords: agroclusters, organizational optimization, cooperative communication, business efficiency, multidisciplinary approach, cost reduction, quality management, industrial cooperation.</p>
--	---

Umar Xudayberdiyev – SamISI dotsenti, i.f.n.

Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

O‘ZBEKISTONDA GO‘SHT YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda go’sht yetishtirish yildan-yilga ko‘payib borayotganligi, lekin aholi sonining va daromadlarining ko‘payib borayotganligi sababli, go’shtga talabning oshib borayotganligi natijasida narxning ko‘tarilishi bayon qilingan. Maqolada go’sht turlarini optimallashtirish, arzon va parxezbop turlarini ko‘paytirish lozimligi ta’kidlangan. Go’shtni yanada ko‘paytirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, go’sht mahsulotlari, qoramollar, qo‘y va echkilar, yaylovlar ko‘p yillik o‘simliklar, chorvachilik, hududlar.

Kirish. Aholining turmushini yaxshilashda sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining ahamiyati katta. Aholi non va non mahsulotlarini, go'sht va go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini doimo muntazam ravishda iste'mol qiladi. Aholi daromadlari ko'payib borgan sayin sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini, xususan go'sht va go'sht mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilmoqda. Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlari aholisi ko'proq qo'y go'shtini, Qoraqalpoq Respublikasi va qolgan viloyatlar aholisi asosan qoramol go'shtini ko'proq iste'mol qiladilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish, uning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilik bo'yicha olimlar turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar olib borishgan. Olimlarimizdan Jo'rayev.F. Ergashev.R.X., Murtazayev.O., Tangirov A.E., S.Xamrayevalar qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zotdor mollarni ko'paytirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalarini ko'proq yoritishgan. Chorvachilikni rivojlantirishda mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, hamda "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 3-martdagi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda: Ma'lumotlarni yig'ish kuzatish, taqqoslash, tarkibiy tahlil, statistik o'rganish, xulosalar qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Aholini arzon va sifatli go'sht va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan qishloq xo'jaligini xususan chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlari natijasida bu sohada mahsulot yetishtirish yildan yilga ko'payib bormoqda. Mamlakatda chorvachilikni rivojlantirish, chorvador va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, aholini uzluksiz go'sht va go'sht mahsulotlarini bilan ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan mollar zotini yaxshilash, paxta maydonlarini kamaytirib, takroriy ekishni ko'paytirib, chorva ozuqasini yanada ko'paytirish, chorvadorlarga davlat budjetidan subsidiya ajratish, veterinariya xizmatlarini yaxshilash belgilangan.

O'zbekistonda 2019-2024 yillarda go'sh yetishtirish dinamikasi.

Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
ko'rsatkichlar						
1. Go'sht yetishtirish tirik vaznda, ming t.	2473,6	2519,6	2635,1	2725,9	2833,2	2942,5
2. Aholi jon boshiga chiqarilgan go'sht (tirik vaznda) kg	73,7	73,6	75,5	76,5	77,8	79,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatda go'sht yetishtirish muntazam ravishda ko'payib bormoqda. 2019-yil 2473,6 ming tonna (tirik vaznda) go'sht yetishtirilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 2942,5 ming tonnaga (tirik vaznda) yetgan, ya'ni ushbu davrda 119,0 foizga ko'paygan. Ushbu davrda mamlakat aholisi ham 110,5 foizga ko'payganligini hisobga olsak aholi jon boshiga go'sht yetishtirish 2024-yilga kelib, 2019-yilga nisbatdan 107,9 foizga (79,5:73,7*100) o'sgan.

2024-yilda eng ko'p go'sht yetishtirgan viloyatlar Qashqadaryo - 345,9 ming tonna, Samarqand - 326,9 ming tonna, Toshkent viloyatida - 312,3 ming tonna, eng kam Sirdaryo viloyati - 80,4 ming tonna, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 129,8 ming tonna, Namangan viloyatida - 182,4 ming tonna yetishtirilgan. Fermer xo'jaliklari 188,1 ming tonna, dehqon va tomarqa xo'jaliklarda 2488,6 ming tonna (84,6 foiz) qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan 265,8 ming tonna go'sht yetishtirilgan. Demak, mamlakatimizda asosiy go'sht yetishtiruvchilar dehqon va tomarqa xo'jaliklaridir.

Statistikada go'sht mahsulotlari yirik shoxli qoramollar, qo'y va echkilar, parrandalar, cho'chqalar va boshqa mollar tarzida guruhlab beriladi. Ushbu guruhlash asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ko'p yillardan beri yirik shoxli qoramollar go'shtini yetishtirish katta hissani tashkil etadi.

O'zbekistonda 2019-2023-yillarda go'sht yetishtirishning turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2019-yil		2023-yil		2023-yil 2019-yilga nisbatan % da
	Tirik vaznda	Hissasi %	Tirik vaznda	Hissasi %	
1.Yirik shoxli qoramollar	1869,5	75,60	2077,5	73,30	111,1
2.Qo'y va echkilar	381,5	15,40	434,9	15,40	114,0
3.Parrandalar	205,2	8,30	303,9	10,70	148,1
4.Cho'chqalar	3,8	0,15	2,7	0,10	71,0
5. Boshqa turdagi mollar	13,6	0,55	14,2	0,50	104,4
Jami	2473,6	100,0	2833,2	100,0	114,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, umumiy go'sht hajmi 2023-yil 2019-yilga nisbatan 114,5 foizga o'sgan bo'lsa, parrandalardan olinadigan go'sht 148,1 foizga o'sgan, cho'chqa go'shti esa ushbu davrda 71,0 foizgacha kamaygan. Ushbu mamlakat aholi soni ham ko'paygan. 2019-yil aholi soni 33905,2 ming kishi bo'lsa, 2023-yilga kelib 36799,8 ming kishiga yetgan ya'ni 108,5 foizga ko'paygan. Undan tashqari aholi daromadlari ham har yili muntazam oshib bormoqda. Natijada go'shtga bo'lgan talab ko'payib, go'sht narxi yildan yilga oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2020-yilda 1 kg qoramol go'sht narxi 60,0 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib uning narxi 120,0-140,0 ming so'mga yetmoqda ya'ni ikki barobar ko'tarilgan. Albatta narxni arzonlashtirish va aholining go'shtga bo'lgan talabining to'liq qondirish uchun yaylovlarni ko'kalamlashtirish suvsizlikka chidamli ko'p yillik o'simliklar yetishtirishni ko'paytirish, yem va omuxtalarni narxlarini arzonlashtirish, hududlarda zamonaviy chorvachilik kompleksini ko'paytirish zarur bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tibbiyot mutaxassislarining fikricha eng foydali go'sht, quyon go'shti hisoblanar ekan. Quyon go'shtida yog' kam bo'lib, parxezbop, temir moddasi va vitaminlarga boy ekan. Quyon tez ko'payadigan va tez semiradihis hisoblanadi. Demak quyon go'shtini tayyorlash uchun xarajatlar kam bo'ladi. Quyonni boqish uchun qoramollar, qo'ylar kabi katta mablag' talab qilinadigan imoratlar, asbob-uskunalar kerak bo'lmaydi. Lekin mamlakat aholisining ko'plari quyon go'shtini iste'mol qilib o'rganmagan shuning uchun quyon go'shtining shifoligini, tez hazm bo'lishini targ'ib qilib, go'shtni qanday usullar bilan pishirish va iste'mol qilishni aholiga tushuntirish lozim bo'ladi. Har bir hududda quyon boquvchi fermalar tashkil etib, ularga yetarli darajada ozuqa tayyorlash uchun yer maydoni ajratish lozim. Chorva mollari boqiladigan yaylovlarning katta qismi degradatsiyaga uchrab, yem-xashak o'simlik turlari kamayib bormoqda. Yaylovlarga suvsizlikka chidamli, chuqur ildiz oladigan ko'p yillik o'simlik urug'larini unib chiqadigan tabiiy sharoitlarda sepish, yaylovlarda almashlab boqishni joriy qilish lozim. Fermer va dehqon xo'jaliklarida beda, makkajo'xori, lavlagi kabi ozuqabop o'simliklarning ekin maydonini ko'paytirish, hosildorligini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 3-martdagi "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 8-fevraldagi "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori.

4. Pardayev M.K. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya” 2016-yil, 504 b.
5. Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand , Sam ISI bosmaxonasi, 2020-yil. 124 bet.
6. vvv. stat.uz.

<p>У.Худайбердиев, М.Худойбердиева Проблемы и решения в производстве мяса в Узбекистане</p>	<p>U.Khudayberdiyev, M.Hudoyberdiyeva Problems and solutions in meat production in Uzbekistan</p>
<p>Аннотация. В статье описывается тот факт, что производство мяса в нашей стране увеличивается с каждым годом, но в связи с ростом населения и доходов увеличивается спрос на мясо, что приводит к росту цен. В статье подчеркивается необходимость оптимизации видов мяса и увеличения количества дешевых и диетических видов. Указаны пути дальнейшего увеличения производства мяса.</p> <p>Ключевые слова: продукты питания, мясная продукция, крупный рогатый скот, овцы и козы, пастбища, многолетние растения, поголовье скота, территории.</p>	<p>Abstract. The article describes the fact that meat production in our country increases every year, but due to population and income growth, the demand for meat increases, which leads to higher prices. The article emphasizes the need to optimize meat types and increase the number of cheap and dietary types. The ways to further increase meat production are indicated.</p> <p>Keywords: food, meat products, cattle, sheep and goats, pastures, perennials, livestock, territories.</p>

Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov – SamISI tayanch doktoranti,

SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA TA’MINOT ZANJIRI TIZIMINING TASHKILY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya. Ushbu tadqiqot ishida sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiri tizimining samaradorligi, mavjud tashkiliy mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan. Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda ta’minot zanjirining muvofiqlashtirilgan va samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Taklif etilgan tashkiliy mexanizm modeli ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash va resurslardan oqilona foydalanishni ko‘zda tutishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sut sanoati, ta’minot zanjiri, tashkiliy mexanizm, logistika, qayta ishlash korxonalari, xom ashyo ta’minoti, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot harakati.

Kirish. Sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash oziq-ovqat sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining ortib borishi bilan birga, mahsulot sifati, yetkazib berish tezligi va logistika tizimining barqarorligi ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, sut tez buziluvchan mahsulot bo‘lganligi sababli, ta’minot zanjirining har bir bo‘g‘ini mukammal tashkillashtirilishi lozim.

Ta’minot zanjiri faqat ishlab chiqaruvchidan xaridorgacha bo‘lgan oddiy yo‘l emas, balki bir necha ishtirokchilar – fermer xo‘jaliklari, transport xizmatlari, saqlash omborlari, qayta ishlash korxonalari, va sotuv tarmoqlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan tizimni anglatadi. Mazkur ishda aynan shu tizimni mukammallashtirish, uning har bir bo‘g‘inini samarali boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Qayta ishlash sanoati korxonalarida ta’minot zanjiri bilan bog‘liq masalalari va ulardagi muammolarni bartaraf qilish bilan bog‘liq ishlar, ularni bartaraf qilish yo‘llari juda muhimdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 26-apreldagi “Respublikada go’sht, jun va sut yo‘nalishidagi mayda shoxli mollarni ko‘paytirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-224-son Qarori ham aynan sutni qayta ishlash korxonalarida ozuqa bazalarini takomillashtirish, xom ashyoni saqlash, uni yetkazib berishda ta’minot zanjirini optimallashtirish masalalariga bag‘ishlangan [1].

Qayta ishlash sanoatida ayniqsa sutni qayta ishlash kichik korxonalar tomonidan amalga oshirilishi tabiiy holdir. Zero, sut xom ashyosi sifati tez buziladigan xom ashyo tarkibiga kirishi

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.